



## PSIXOLOGIYADA GENDER TUSHUNCHASINING NAZARIY TALQINI

**Mahliyo Bahtiyorovna Yuldasheva**

psixologiya fanlari bo'yicha PhD,  
dotsent Farg'ona davlat universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada “gender” tushunchasining nazariy asoslari, tarixiy shakllanishi va ilmiy rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Gender ijtimoiy-psixologik konstruksiya sifatida erkak va ayol rollarining jamiyatdagi o'rnini aniqlashda qanday o'zgaruvchan omillarga bog'liqligi tahlil qilinadi. Maqolada g'arb psixologiyasida shakllangan asosiy nazariyalar hamda ularning gender tafakkuriga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, gender identifikatsiyasi, gender stereotiplari va gender rolining shakllanishi kabi psixologik jarayonlarga izoh beriladi.

**Kalit so'zlar:** gender, jins, gender stereotip, gender ustanovka, qadriyatlar, kutilmalar

**Аннотация:** В статье освещаются теоретические основы, историческое становление и этапы научного развития понятия «гендер». Анализируется, гендер как социально-психологическая конструкция зависит от переменных факторов, определяющих место мужских и женских ролей в обществе. В статье рассматриваются основные теории, сформулированные в западной психологии, а также их влияние на гендерное мышление. Также дается объяснение таким психологическим процессам, как гендерная идентичность, формирование гендерного стереотипа.

**Ключевые слова:** гендер, пол, гендерные стереотипы, гендерные установки, ценности, ожидания



**Abstract:** The article highlights the theoretical foundations, historical formation and stages of scientific development of the concept of “gender”. It is analyzed that gender as a socio-psychological construct depends on variable factors that determine the place of male and female roles in society. The article examines the main theories formulated in Western psychology, as well as their impact on gender thinking. It also explains such psychological processes as gender identity and the formation of a gender stereotype.

**Keywords:** gender, sex, gender stereotypes, gender attitudes, values, expectations

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatda globallashuv va integratsion jarayonlarning keng ko‘lamda quloch otishi, yangi muammolarni keltirib chiqara boshladi. Jamiyatshunos tadqiqotchilar tomonidan izchil va chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolar qatoriga bugun hech ikkilanmasdan – “gender” jarayonlarini ham kiritish mumkin.

O‘zbeklar turmush tarzida oila-nikoh munosabatlari musulmon Sharqi qoidalari asosida belgilab berilgan qoidalar mukammal holatda uzoq davrlardan beri ishlab kelayotganligi bilan ma’lumdir. Shuningdek, sovetlar davrida oila munosabatlarida keltiriladigan ko‘plab qonun va qoidalarining musulmon oilasidagi masalalarga mos kelishi yoki kelmasligi mavjud jarayonga zarar yetkazmas edi. Aynan shunday keng ko‘lamdagi jarayon sifatida e’tirof etilishi mumkin bo‘lgan narsa – bu erkak kishining o‘z oilasi ustida qayg‘urishi, ya’ni boquvchi funksiyasini ado etishligi bilan bog‘liqdir. O‘g‘il bolalarga yoshligidan o‘z oilasini ta’minlovchi shaxs sifatida tarbiya berib kelingan.

Hozirgi davrda jamiyatimiz rivojlanishining navbatdagi bosqichida psixologik bilimlar boshqa bilim sohalari bilan bir qatorda takomillashib bormoqda. Bugungi o‘zgarishlar, bizning xatti-harakatlarimizga to‘siqlik qiluvchi hodisalarga faol qarshilik ko‘rsata olish axloqiy poklanish xarakteriga egadir. Yangi yondashuv jamiyatning qanday yoshlarni tarbiyalashi bilan belgilanadi.



Bugungi zamonaviy jamiyatda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning barcha sohalarida insonning u bajarayotgan faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadigan natijalar dolzarblashib bormoqda. Mazkur jarayonda keyingi paytlarda ilmiy hamjamiyatlarda ko'p qo'llanilayotgan "gender" tushunchasi insonning nafaqat o'z-o'zini anglashi va idrok etishida, ijtimoiylashuvida va kasbiy faoliyatida muhim rol o'ynab kelmoqda. "Gender" tushunchasi birinchi marotaba 1963-yilda R.Stoler ishlarida paydo bo'lgan. Keyinchalik lingvistikadan kelib chiqqan (gender – tur) "gender" atamasini erkak va ayollarning jinsi – biologik-genetik, fiziologik va reproduktiv tavsiflari yig'indisidan farqli o'laroq madaniy qirralarini sharhlash uchun qo'llanila boshlandi. "Gender" tushunchasining kiritilishi XX asrning 30-yillarida M.Midning etnografiya bo'yicha ishlarida o'z ifodasini topdi [3]. Unga ko'ra gender quyidagicha tavsiflanadi:

- gender - ijtimoiy jins bo'lib, u xususan shaxslilik va guruhiiy xulq-atvor xususiyatlari va individning jamiyatdagi huquqiy va mavqe-ijtimoiy pozitsiyasini belgilashni taqozo etadi;

- gender - biologik jins, morfologik va fiziologik tavsiflar majmuasi sifatida qatnashadi, erotik hissiyotlar va kechinmalar yo'nalganligi va namoyon bo'lishi bilan bog'liq individual xulqni ham aniqlaydi.

Psixologiyada gender ustanovkalar tushunchasi insonning jinsga oid stereotiplar, qadriyatlar va kutilmalar tizimini anglatadi. Bu ustanovkalar ijtimoiy-madaniy omillar, tarbiya, ommaviy axborot vositalari va shaxsiy tajribalar ta'sirida shakllanadi. Ijtimoiy psixologiyada gender termini mazkur tushuncha ma'naviy mazmunining birinchi varianti bilangina bog'liq psixologik reallikni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari psixologik fan doirasida so'nggi o'n yilliklar mobaynida subyektlarning u yoki bu ijtimoiy jinsga mansubligi mantig'ida jinsiy differentsiatsiyasi psixologik tavsifini ko'rib chiqishga qimmatli yondashuv yuzaga keldi. Ta'kidlash joizki, dastavval "gender" tushunchasining o'zi, keyinchalik "gender yondashuv"ning paydo bo'lishi "ayollarga oid" deb atalmish



tadqiqotlar bilan bog‘liq. Shunga o‘xshash keng qamrovli tadqiqotlardan biri Sandra Lipsits Bem tomonidan gender tafovutlarni o‘rganish borasidagi tadqiqotlarni aytib o‘tish mumkin. Uning 1993-yilda chiqqan “Gender linzalari” monografiyasida jamiyat erkak va ayollarga ularning ishlari va imkoniyatlari haqidagi ma’lum ijtimoiy tavsiflarni kiritish haqidagi tasavvurlar batafsil yoritilgan [1]. Mazkur holatda jins – bu tarixiy taraqqiyot mobaynida orttirilgan ramziy ahamiyatli belgidir. Sandra Bem o‘z monografiyasida erkak va ayollar xulq-atvoridagi tafovutlar, ularning ijtimoiy pozitsiyalaridagi tafovutlar biologiklik tufayli, ya’ni jinsiy farqlardir degan keng tarqalgan fikrlarni ko‘rib chiqib, jins va gender hayotiy sikl (ontogenez) jarayonida qanday o‘zaro ta’sirga kirishishini tahlil qiladi. Bunda asosiy g‘oya shu ediki, ijtimoiylik biologiklikka qaraganda ko‘proq o‘zgarishlarga moyil bo‘ladi. Bem nazariyasiga ko‘ra, insondagi idrok selektivdir, ya’ni u erkak va ayollarni qutbli idrok qilish odatiy tizimiga joylashadi va reallikda haddan ziyod tarqalgan, lekin madaniyat orqali shakllangan idrok doirasiga hech ham sig‘maydigan narsalarni tanqidsiz qarab chiqmaydi. Shunday qilib, Sandra Bemning “Gender linzalari” nazariyasi shaxsning gender xususiyatlarining madaniy-tarixiy tarkibi va uning psixologik ustanovkalarini namoyon qiladi [1].

Erkak va ayollar o‘rtasidagi ahamiyatli psixologik tafovutlarning mavjudligi o‘z-o‘zidan hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Biroq bu boradagi ko‘p sonli tadqiqotlarga qaramasdan ma’lumotlar yetarli emas va bir-biriga qarama-qarshi. Shaxslilik xususiyatlariga oid asosiy tadqiqotlarni tahlil qilib chiqamiz. Umumiy qabul qilingan stereotiplar empatiya va emotsional sohadagi juda ko‘p gender farqlar mavjudligi haqidagi g‘oyani o‘z ichiga oladi. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tafovutlar haqida gapirganda biz ko‘pincha ayollar erkaklarga qaraganda emotsiyalarini yaxshiroq ifodalaydilar va atrofdagilarga hamdardlik bildirishga ham moyilroqdirlar, deb hisoblaymiz. Haqiqatan ham ayollar erkaklarga qaraganda hissiyotlarga beriluvchan, degan fikrga ishonish gender stereotiplarni o‘rganish mobaynidagi noyob topilmalardan biri hisoblanadi. Erkaklar va



ayollar oʻrtasidagi emotsionallik tafovutlari bir nechta darajalarda qarash mumkin. Birinchi darajada biz boshqalarning emotsional holatini tushunish (empatiya) qobiliyati va bu tushunishni ifodalash malakasi (empatik ekspressiya) bilan toʻqnash kelamiz. Boshqa bir darajada bizni insonning oʻzi tomonidan oʻz emotsiyalarini kechirilishi va mana shu emotsiyalarni bildirish usullari (emotsional ekspressiya) qiziqtiradi.

S.Bemning fikricha, maskulinlik va femininlik yoki jinsiy rolli aynanlik global oʻlchovlarini izlash – aniq illyuzion vazifalardan hisoblanadi. “Erkaklar va ayollarni ajratib turadigan psixologik xususiyatlar va xulq-atvor tuzilmalari mazkur davrda va mazkur madaniyatda, nafaqat koʻp xil, balki turli ildizlarga ega boʻlishi va turli individlarda nisbatan bogʻliq boʻlmagan holda oʻzgarib turishi ham mumkin” [1].

Metodologik qiyinchiliklar ijtimoiy-psixologik xususiyatlardagi va kasbiy faoliyatda shaxs psixologik portretini tashkil etuvchi jinsiy tafovutlar psixologiyasini oʻrganish dolzarbligini kamaytirmaydi, biroq ular bunday oʻrganish albatta fanlararo miqyosda boʻlishi, ijtimoiy jinsiy rollar dinamikasi hamda sinaluvchilarning etnomadaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarurligini taʼkidlaydi. “Gender” inson ijtimoiy hayotining muhim kategoriyalaridan biri ekanligi kundalik voqelikda namoyon boʻladi. Bir jins vakillariga nisbatan xatti-harakat meʼyorlari va kutishlar qoʻllaniladi, bular boshqa jinsga nisbatan qoʻllaniladiganlardan ancha farq qiladi. Buning uchun alohida oʻgʻil bolalarni va qiz bolalarni, erkaklar va ayollarni ifodalovchi maxsus atama va soʻzlar qoʻllaniladi. Har doim ham ijtimoiy ustanovka obyektiv voqelikni aks ettira oladimi? Yoʻq, har doim ham emas. Koʻpincha ustanovkalar konservativ taʼsir koʻrsatadi, yaʼni insonlarning oʻzaro munosabatlaridagi jarayonlarda salbiy oqibatlariga olib keluvchi notoʻgʻri bilim va tasavvurlarni shakllantiradi. Alohida individlarning tasnifini umumlashtirish va ularni bir insonlar va hodisalar guruhiga qoʻllash ustanovkalash deb ataladi. Pavel Merenkovning taʼkidlashicha, ustanovkalak bu - idrok etish xususiyati, maqsadga intiluvchanlikning, shuningdek, mazkur madaniyatda qabul qilingan muayyan



jins vakili turmushi va faoliyatidagi me'yor va qoidalarni hisobga olgan holda inson xulq-atvorining dasturiy anglashilishidir [5].

Barcha gender ustanovkalarni uch guruhga taqsimlasa bo'ladi. Birinchisi – maskulinlik-feminlik (yoki femininlik) ustanovkalari. Boshqacha aytganda, bu mardlik-latofatlilik ustanovkalari deb ataladi. Dastavval, maskulinlik (mardlik) va feminlik (latofatlilik) tushunchalari nimani anglatishini ko'rib chiqamiz. (erkaklarga xos – maskulinlik, ayollarga xos – femininlik). I.S.Kon tomonidan taqdim etilgan “maskulinlik” atamasi ma'nosini tahlil qilishga asoslanib, femininlik va maskulinlik tushunchalariga berilayotgan mazmunni quyidagicha ifoda etish mumkin [5]:

1. Maskulinlik va femininlik tushunchalari erkaklarga (maskulinlik) yoki ayollarga (feminlik) “xolisona xos bo'lgan” ruhiy va xulq-atvoriy xususiyatlarni aks ettiradi.
2. Maskulinlik va femininlik tushunchasi turli ijtimoiy tasavvurlar, fikrlarni o'z ichiga oladi, erkaklar va ayollarga qanday xususiyatlar maqbul ekanligini anglatadi.
3. Maskulinlik va femininlik tushunchalarida ideal erkak va ideal ayolning me'yoriy qoliplari o'z ifodasini topadi.

Shunday qilib, birinchi guruhdagi gender ustanovkalarni mardlik va latofatlilik haqidagi tasavvurlar aksini topgan muayyan shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy-psixologik xususiyatlar yordamida erkaklar va ayollarni tasniflovchi ustanovkalar sifatida belgilash mumkin. Masalan, ayollarga passivlik, tobelilik, emotsionallik, konformlik kabi xususiyatlar, erkaklarga esa faollik, mustaqillik, kompetentlik, jahldordik kabilar xos. Ko'rib turganimizdek, maskulinlik va femininlik xususiyatlari qarama-qarshi qutblarga ega: faollik – passivlik, kuchlilik – o'jizlik.

N.A.Nechayevaning tadqiqotlariga ko'ra, ayolning an'anaviy ideali vafodorlik, sodiqlik, kamtarlik, nazokat, latofat, itoatkorlik kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi [4]. U olib borgan so'rovnomada ishtirokchilarining aksariyati erkak va ayollarni an'anaviy nuqtai



nazardan ifodalovchi fazilatlar va xususiyatlariga yondashganlar, masalan, ayol – muloyim, latofatli, sadoqatli, erkak esa – faol, ishonchli, kuchli bo‘lishi kerak.

Gender ustanovkalarining ikkinchi guruhi oilaviy, kasbiy va boshqa sohalarida muayyan ijtimoiy rollarni mustahkamlash bilan bog‘liq. Ayollarga, odatda, asosiy rollar sifatida oilaviy (ona, uy bekasi, turmush o‘rtog‘i) rollar, erkaklarga esa kasbiy rollar belgilanadi. I.S.Kletsinaning ta’kidlashicha, “erkaklar o‘z kasb-korida erishgan yutuqlariga qarab, ayollar esa oilasi va farzandlari mavjudligiga qarab baholanadi” [2]. Muayyan bir sohada erkaklarga va ayollarga xos, deb hisoblangan rollar majmui turlicha.

Gender ustanovkalarining uchinchi guruhi erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farqni mehnatning muayyan turlari bilan shug‘ullanish jarayonida ifodalanishini aniqlashgan. Jumladan, erkaklarga, odatda ijodiy va yaratuvchanlik xarakteriga ega instrumental soha faoliyatidagi mashg‘ulot va kasblar, ayollarga esa – bajaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi xarakteri bilan farqlanuvchi ekspressiv sohalar xos deb hisoblanadi. Shuning uchun “erkaklarga xos” va “ayollarga xos” deb ataluvchi kasblar mavjudligi to‘g‘risidagi fikr keng tarqalgan. Xorijda gender ustanovkalarni o‘rganishga ko‘plab tadqiqotlar bag‘ishlangan. Dastavval ular ustanovka tushunchasining o‘zini, ustanovkalarining namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Keyinchalik mazkur tadqiqotlarda faoliyat ko‘rsatish va tushuntiruvchi chizmalarining mazkur jarayon yuzaga keladigan mexanizmlarini izlashga chuqur kirishildi. 1950-yillarda olib borilgan bu sohadagi ilk tadqiqotlar erkak va ayollarning bir-birlari to‘g‘risidagi odatdagi tasavvurlarini va ular asosida yuzaga keladigan ustanovkalarni aniqladi. Jumladan, o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijobiy erkak qiyofasi ko‘pincha kompetentlik, faollik va omilkorlik, ayollarda esa dilkashlik, mehribonlik va ruhiy qo‘llab-quvvatlashda ifodalanadi. Bunda erkaklarga xos salbiy xususiyatlar qatorida qo‘pollik, avtoritarlik, ayollarda esa passivlik, hissiyotlarga o‘ta beriluvchanlik kabilar ko‘rsatib o‘tiladi.



Bir qator tadqiqotlar kasbiy faoliyatning turli jabhalarida namoyon bo‘luvchi erkaklar va ayollar qobiliyatlari nuqtai nazaridan ustanovkalarni o‘rganishga qaratilgan edi. O‘tkazilgan tajribalarda ishtirokchilar erkaklarning qobiliyatlarini ayollarnikiga qaraganda yuqoriroq baholagani aniqlangan. Ota-onalar o‘z farzandlariga tarbiya berishda tayyor gender ustanovkalardan foydalanadilar, natijada ularning ta’sirida o‘g‘il va qiz bolalarda yoshligidan erkaklarga va ayollarga xos xususiyatlar to‘g‘risidagi tegishli me’yoriy tasavvurlar shakllanadi. I.Kletsinaning fikricha, ushbu tasavvurlar “o‘g‘il bolalarda – faollik, qat’iyatlik, farosatlilik, o‘ziga ishonganlik, qiz bolalarda esa – yon bosishlik, passivlik, qaramlikdan iborat” [2]. Qiz bolalarga odatda tarbiyali bo‘lish, ozodalik, kamtarinlik, nazokatlilik, uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarish kabi xususiyatlar singdiriladi. O‘g‘il bolalarda esa dadillik, aql-zakovat, mas’uliyatlilik, mardlik, sobitqadamlik, o‘zini himoya qila bilish va pul topish kabi fazilatlar rag‘batlantiriladi. Ko‘rinib turganidek, erkaklarga va ayollarga singdiriladigan xususiyatlar to‘plami maskulinlik va femininlik to‘g‘risidagi an’anaviy tasavvurlarga (ustanovkalarga) to‘liq mos keladi. Ular, aslida, o‘g‘il bola (erkak) yoki qiz bola (ayol) qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi standart fikr-mulohazalarni aks ettiradi. Bu o‘rinda xulq-atvorlarning turli shakllari mavjudligi kam hollarda hisobga olinadi.

Demak, gender ustanovkalar bu jamiyatdagi jins (erkak yoki ayol) haqidagi umumqabul qilingan tushunchalar, kutilmalar va stereotiplar majmuidir. Ular shaxsning xulq-atvori, qobiliyatlari va jamiyatdagi o‘rniga qanday qaralishini belgilaydi. Gender ustanovkalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy konstruksiya – biologik emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan.
2. Stereotipik – erkaklar va ayollar qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi an’anaviy qarashlarni shakllantiradi.
3. Me’yoriy – jamiyat odamlardan shu ustanovkalarga mos kelishini kutadi.
4. O‘zgaruvchanlik – vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin bo‘lgan xususiyat.



Shunday qilib, ustanovkalar – bu guruhlar, insonlar, hodisalar to‘g‘risidagi ayrim tasavvurlardir, bunday tasavvurlar haqiqatga yaqin bo‘lishi, ayrim hollarda noto‘g‘ri yoki haddan tashqari umumlashtirilgan bo‘lishi mumkin. Bir tomondan, ular dunyo manzarasini soddalashtiradi va olinayotgan ma’lumotlarni tez ishlashga ko‘maklashadi, boshqa tomondan, ular haqiqatni buzib ko‘rsatishi va xatoli umumlashmalarga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan gender ustanovkalar nafaqat shaxsning o‘z-o‘zini anglash an’anasida, balki uning xulq-atvorini yo‘naltirib turishda muhim vazifani bajaradi.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, gender tushunchasining psixologik talqini inson ongining shakllanishi, ijtimoiy rollarning egallanishi va shaxsiy identifikatsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Psixologiyada gender biologik jinsdan farqli o‘laroq ijtimoiy va madaniy omillar ta’sirida shakllanuvchi murakkab psixologik konstruktsiya sifatida qaraladi. Yuqorida tahlil qilingan nazariy yondashuvlar genderni tushunish uchun muhim konseptual asoslar yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, gender stereotiplari va ularning psixologik oqibatlari inson hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatar ekan, shu bois bu masalaga yondashishda individual hamda ijtimoiy omillar uyg‘un tarzda tahlil qilinishi lozim. Psixologiyada gender masalasini chuqur o‘rganish shaxslararo munosabatlarni, ta’lim tizimini va kasbiy yo‘nalganlikni yanada adolatli va tenglikka asoslangan tarzda tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar:

1. Bem, Sandra L. “The measurement of psychological androgyny”. Journal of Consulting and Clinical Psychology, 1974
2. Клецина И.С. Гендерная компетентность личности. Гендерная психология: практикум. 2-е изд. И.С. Клециной. – СПб.: Питер. 2009. – С. 316–339
3. Мид М. Мужское и женское. Исследование полового вопроса в меняющемся мире [пер. с англ.: М. Ошурков и др.]. — Москва : Росспэн, 2004. — 412 с.



4. Нечаева Н.А. Гендерные идеалы молодежи. Петербургская социология сегодня. – 2017. – № 8.
5. Хафизова Н.А. Как возможны мужское и женское? // Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. Культура, история, философия, право. – 2012. – № 6. – С. 38–46.